

XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik




2022- yil yanvar-dekabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xorazm viloyatida kichik tadbirkorlik

2017-2022- yillarda faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *birlikda*




Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **25 616** tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **3 632** taga ko'paygan yoki **16,5 %** ga oshgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **13,2** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2022- yilning yanvar - dekabrda **5 655** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,1 %** ga oshgan.

2023- yilning 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan soni jami **25 616** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **5 655** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Urganch shahrida **4 941** tani yoki jamiga nisbatan **19,3 %** ni tashkil etdi.

1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har 1000 aholiga nisbati

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda



2022- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **13,2** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021- yilga nisbatan **0,9** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbatining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida **33,3** birlik, Xiva shahrida **23,1** birlik, Urganch tumanida **14,3** birlik, Yangibozor tumanida **14,2** birlik, Xiva tumanida **12,7** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*



* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har 1000 aholiga nisbati

Xorazm viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*

Eng yuqori ko'rsatkich

Urganch shahri
– 33,3 birlik

O'rtacha ko'rsatkich

Qo'shko'pir tumani
– 11,3 birlik

Eng past ko'rsatkich

Hazorasp tumani
– 7,3 birlik

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000** aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida **33,3** birlik, Xiva shahrida **23,1** birlik, Urganch tumanida **14,3** birlik, Yangibozor tumanida **14,2** birlik, Xiva tumanida **12,7** birlik, Yangiariq tumanida **12,0** birlik, Qo'shko'pir tumanida **11,3** birlik, Gurlan tumanida **11,0** birlik, Tuproqqal'a tumanida **10,8** birlik kuzatildi.

2022- yilda har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlari eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, *birlikda*

Urganch shahar
33,3

Xiva shahar
23,1

Urganch tumani
14,3

Yangibozor tumani
14,2

Xiva tumani
12,7

Yangiariq tumani
12,0

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2021- y.		2022- y.
773	Urganch sh.	750
309	Xiva sh.	334
429	Bog'ot	506
355	Gurlan	436
465	Qo'shkupir	548
562	Urganch	585
409	Hazorasp	446
139	Tupraqqal'a	148
334	Xonqa	347
275	Xiva	367
278	Shovot	480
318	Yangiariq	397
268	Yangibozor	311


2022- yilda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Urganch sh.	13,3
Urganch	10,3
Qo'shkupir	9,7
Bog'ot	8,9
Shovot	8,5
Hazorasp	7,9
Gurlan	7,7
Yangiariq	7,0
Xiva	6,5
Xonqa	6,1
Xiva sh.	5,9
Yangibozor	5,5
Tupraqqal'a	2,7


2022- yilda hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Urganch shahri – **13,3 %**, Urganch tumani – **10,3 %**, Qo'shko'pir tumani – **9,7 %**, Bog'ot tumani – **8,9 %**, Shovot tumani – **8,5 %**, Hazorasp tumani – **7,9 %**, Gurlan tumani – **7,7 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2021-2022- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*




2022- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **2 118** ta, sanoatda **1 187** ta hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **910** ta yangidan tashkil etilgan.


Tuman va shahar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida **750** ta, Urganch tumanida **585** ta hamda Qo'shko'pir tumanida **548** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018-2022- yillarda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2018-2022- yillar davomida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlik



So'ngi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2018-2022- yillar davomida jami **21 878** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **7 656** ta **yoki 35,0 %**, xizmatlar sohasida - **4 783** ta (**21,9 %**), sanoat sohasida - **4 611** ta (**21,1 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **3 515** ta (**16,1 %**) va qurilish sohasida - **1 313** ta (**5,9 %**) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so‘ngi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoqdan ulushi, %da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi		
Aralash qishloq xo‘jaligi	494	18,6
Parrandachilik	397	14,9
Dehqonchilik sohasida boshqa xizmatlar ko‘rsatish	260	9,8
Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko‘paytirish	251	9,4
Sabzavotlar yetishtirish	212	8,0
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish	606	18,7
Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish	242	7,5
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	220	6,8
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	179	5,5
Boshqa mebellar ishlab chiqarish	177	5,5
Qurilish		
Turar joy binolarini qurish	234	32,5
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari	200	27,7
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	92	12,8
Qurilish loyihalarini ishlab chiqish	59	8,2
Yo‘llar va shosselar qurish	44	6,1
Savdo		
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	1466	27,2
Ixtisoslashmagan ulgurji savdo	553	10,3
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	477	8,9
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa yangi tovarlar chakana savdosi	449	8,3
Ixtisoslashmagan do‘konlarda asosan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari chakana savdosi	394	7,3
Xizmatlar sohasi		
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	380	11,9
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari etkazish bo‘yicha xizmatlar	319	10,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	301	9,4
Avtomobil transportida yuk tashish	259	8,1
Boshqa telekommunikatsiya xizmatlari ko‘rsatish	149	4,7

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, so'nggi 3 yilda eng ko'p savdo sohasining ixtisoslashgan do'konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi yo'nalishida **1 466 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarning **27,2 %**ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'ngi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, avtomobil transporti xizmatlari va ta'lim yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'ngi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, trikatay mahsulotlarni ishlab chiqarish, mebel ishlab chiqarish va deraza hamda eshik romlarini ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, qurilish loyihalash ishlari hamda boshqa toifalarga kiritilmagan qurilish montaj yo'nalishlarida ko'proq tashkil etilmoqda.

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2022- yilda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **71,6 %**ni tashkil qilib, 2021- yilga nisbatan **2,1** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.

2022- yilda kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **96,4 %**ni, yo'lovchi aylanmasida **96,2 %**ni, yo'lovchi tashishda **96,1 %**ni, qurilishda **89,4 %** ni, yuk aylanmasi **83,5 %**ni, savdoda **82,6 %**ni tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati

Hajmi, mlrd so'mda




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Urganch sh.	676,5
Xiva sh.	229,4
Bog'ot	181,1
Gurlan	130,8
Qo'shkupir	115,5
Urganch	483,4
Hazorasp	114,3
Tuproqqal'a	251,5
Xonqa	256,3
Xiva	153,5
Shovot	120,3
Yangiariq	161,4
Yangibozor	82,0

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2 956,0** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Urganch shahri (**676,5** mlrd. so'm), Urganch (**483,4** mlrd. so'm), Xonqa (**256,3** mlrd. so'm), Tuproqqal'a (**251,5** mlrd. so'm) tumanlari va Xiva sh. (**229,4** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Yangibozor tumanida (**82,0** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlar hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, %da


Urganch sh.	22,9
Urganch	16,4
Xonqa	8,7
Tuproqqal'a	8,5
Xiva sh.	7,8

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yilda hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




2022- yilda sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **16,1 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xiva shahri (**100,0 %**), Xiva tumani (**55,3 %**), Urganch tumani (**51,3 %**), Yangiariq tumani (**35,2 %**), Xonqa tumani (**34,9 %**), Bog'ot tumani (**34,6 %**), Qo'shko'pir tumani (**29,3 %**), Gurlan tumani (**26,8 %**), Hazorasp tumani (**22,6 %**) va Urganch sh. (**21,3 %**) tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2022- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi




2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **4 373,6** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **89,4 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **99,4 %** ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Urganch shahri (**846,5** mlrd. so'm), Xiva (**437,7** mlrd. so'm), Urganch (**404,4** mlrd. so'm), Xonqa (**343,8** mlrd. so'm), Qo'shko'pir tumanlari (**311,3** mlrd. so'm), Xiva sh. (**304,2** mlrd. so'm) hamda Gurlan (**294,3** mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **4 681,3** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **53,2 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **90,2 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Urganch shahri (**403,5** mlrd. so'm), Qo'shko'pir (**402,9** mlrd. so'm), Urganch (**279,5** mlrd. so'm), Tuproqqal'a tumanlari (**226,4** mlrd. so'm), Xiva sh. (**198,5** mlrd. so'm), Gurlan (**189,6** mlrd. so'm) hamda Xonqa (**165,9** mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi




2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da



■ hajmi ■ foizi

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati


2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **23 723,5** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **96,4 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **103,3 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Urganch (**2 668,2** mlrd. so'm), Xonqa (**2 533,2** mlrd. so'm), Gurlan (**2 401,9** mlrd. so'm), Shovot (**2 330,7** mlrd. so'm), Qo'shko'pir (**2 231,0** mlrd. so'm) hamda Bog'ot (**2 206,0** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd so'mda




2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **11 075,3** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **82,6 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2021- yilga nisbatan **106,7 %** ni tashkil qildi.

2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm

Urganch sh.	2988,7
Hazorasp	1282,4
Urganch	1235,4
Gurlan	1041,6
Shovot	761,5
Xonqa	739,6
Bog'ot	686,6
Qo'shkupir	547,8
Yangiariq	486,5
Xiva sh.	457,0
Xiva	316,0
Yangibozor	285,8
Tupraqqal'a	246,3

2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Urganch shahri (**2 988,7** mlrd. so'm), Hazorasp (**1 282,4** mlrd. so'm), Urganch (**1 235,4** mlrd. so'm), Gurlan (**1 041,6** mlrd. so'm), Shovot (**761,5** mlrd. so'm) va Xonqa (**739,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2017-2022 yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2022- yilning yanvar-dekabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **6 396,5** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **62,1** % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan **110,2** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Urganch shahri (**1523,5** mlrd. so'm), Urganch (**561,4** mlrd. so'm), Xonqa (**485,3** mlrd. so'm), Hazorasp (**474,2** mlrd. so'm), Bog'ot (**447,9** mlrd. so'm), Gurlan (**433,2** mlrd. so'm) va Qo'shko'pir (**422,6** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dollar




Ulushi, %da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


Hajmi, mln. AQSH dollar



Ulushi, %da




2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2017- y. 2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y.

2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **142,4** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **58,1 %** ini tashkil etdi.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi




■ hajmi, ming. AQSH dol. ■ foizi, %

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Xiva sh. – **95,7 %**, Xiva tumanida – **95,4 %**, Yangibozor tumanida – **89,5 %**, Hazorasp tumanida – **87,3 %**, Qo'shko'pir tumanida – **84,1 %**, Bog'ot tumanida – **72,7 %**, Gurlan tumanida – **60,6 %** va Yangiariq tumanida – **58,9 %**, eng past ko'rsatkich Shovot tumanida – **14,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati


2017-2022- yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarning mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, %da




2022- yilda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **189,1** million AQSH dollarini yoki jami importning **35,0** % ini tashkil etdi.

2022- yilda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2022- yilda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Xiva sh. – **97,2** %, Hazorasp tumanida – **89,5** %, Bog'ot tumanida – **84,1** %, Urganch tumanida – **81,2** %, Xiva tumanida – **71,2** %, Urganch sh. – **71,1** % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda

2022- yilda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,3 %** ni tashkil etdi. 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **104,9 %** ni tashkil qildi.




Yuk
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **83,5 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **104,8 %** ni tashkil qildi.



Yo'lovchi
tashishda

2022- yilda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **94,7 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,4 %** ni tashkil qildi.




Yo'lovchi
aylanmasida

2022- yilda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **96,2 %** ni tashkil etib, 2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati **103,9 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022-yil VI chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2022-yil VI chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma **1 053** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **369** ta (**35,0 %**)si iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **628** ta (**59,6 %**) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **56** ta (**5,4 %**) subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **39,1 % (411 ta)**, xizmatlar sohasida – **27,5 % (290 ta)**, sanoatda – **16,2 % (171 ta)**, qurilishda – **8,3 % (87 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **8,9 % (94 ta)**ni tashkil etdi.

2022-yil VI chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022-yil VI chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahri (**238** ta), Urganch (**134** ta), Xonqa tumanlari (**96** ta), Xiva sh. (**79** ta) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning VI choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi sanoatda – **36,3 %**ni, savdoda – **35,8 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **35,0 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qurilishda – **63,2 %** ni, xizmatlar sohasida – **61,4 %** ni, savdoda – **59,1 %** ni, sanoatda – **58,5 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi sanoatda – **7,0 %** ni, savdoda – **5,1 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **6,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022- yilning VI choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – 40,4 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 40,4 % ni, sanoatda – 40,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida – 56,9 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 56,4 % ni, savdoda – 55,5 % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi sanoatda – 4,6 % ni, qurilishda – 4,6 % ni, savdoda – 3,8 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	40,4	52,0	7,6
Band bo'lganlar soni	26,3	69,8	3,9
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	34,6	61,6	3,8
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	28,7	64,1	7,2
Raqobat muhiti	40,7	56,4	2,9

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	44,3	52,1	3,6
Band bo'lganlar soni	30,2	66,8	3,0
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	35,0	62,0	3,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	30,1	62,7	7,2
Raqobat muhiti	41,3	55,3	3,4


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yilning VI choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2022- yilning VI choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli